



VOYAGA YETMAGANLAR NIKOH YOSHI

Usmonov Saidyusuf Saydolim o'g'li

Annotatsiya. *Voyaga yetmagan shaxslar nikoh yoshini, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish, boquvchisini yo'qotgan onalarga yordam dasturlarini ishga tushirish, bolalar huquqlarini himoya qilish va voyaga yetmaganlar mehnatini tartibga solishdan iborat.*

Аннотация. *Он включает в себя повышение возраста вступления в брак для несовершеннолетних, защиту прав несовершеннолетних, запуск программ помощи матерям-одиночкам, защиту прав детей и регулирование труда несовершеннолетних.*

Abstract. *The purpose of the law is to protect the marriageable age of minors, the rights of minors, launch assistance programs for single mothers, protect children's rights, and regulate the labor of minors.*

Tayanch tushunchalar: *Voyaga yetmagan shaxslar, nikoh yoshi, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish, bolalar huquqlarini himoya qilish, dunyo davlatlari, voyaga yetmaganlar bolalar.*

Bolalar nikohi bu voyaga yetmagan turli xil jinsdagi shaxslarning rasmiy ravishda tuzilgan nikoh yoki norasmiy ittifoqdir. Dunyoda shu sohada izlanayotgan hamda ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra voyaga yetmaganlar nikohini bolalar nikohi yoki o'smirlilik davridagi nikoh va ularda erta homiladorlik davri kuzatilishi esa sud qarori bilan ushbu nikohlarni qonuniy deb hisoblashi ayni qiziq holat hisoblanadi. Chunki yer yuzida erta homiladorlik davri o'zidan-o'zi paydo bo'lib qolmaganligini hamda bu asoslar bir necha yillar mobaynida dunyo davlatlariga tarqalishi odiiy holga aylanib bormoqda. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak ikkita jahon urushi paytida qancha voyaga yetmagan zo'rlanganligi haqida ayrim manbalar



yetib kelgan holos, bu hodisalar asosan Yevropa va AQSHga tegishli bo'lib, bu davrda bu sohaga etibor juda past darajada bo'lib barcha o'z qarashlarini urushga qaratishi va manfaatdorlik hissi bilan yashashgan. Hatto hozirgi kunda dunyo gegemoni bo'lgan AQSHda ham voyaga yetmaganlar mehnatidan foydalanish juda ko'p uchrab turgan bunga sabab bolalar mehnatiga ko'p haq to'lanmasligi hamda bu pul ularga juda zarurligida edi. Ayrim biznes egalari ushbu holatdan yaxshigina foyda ko'rishgan. Ammo hozirgi kunda ularni o'sha sohani eng kuchli shaxsi sifatida namoyon bo'lishidadir. Yana shuni ta'kidlash lozimki tarixda ayrim kuchli deb yuritilgan shaxslar aynan voyaga yetmagan shaxslarni zo'rlash ortidan bor mulkidan ajralganlari ham yo'q emas.

Erta nikoh qurish turli madaniyatlar va dinlarda, turli xalqlar orasida va turli elatlarda nikoh yoshi yoki nikoh qurish haqida boshqacha tarzda talqin etilgan. Asrlar davomida, zamonaviy g'oyalarga ko'ra, erta nikohlar juda keng tarqalgan bo'lib, din, qonunlar va urf-odatlar tomonidan ruxsat etilgan. Hozir esa ayrim mamlakatlar va mintaqalarda qonun bilan belgilangan nikohning eng kam yoshi 14 yoshdan kam. Dunyo davlatlarida trulich qilib qabul qilingan. Ayrim davlatlarda esa 18 yoshga to'lgunga qadar nikohga ota-onaning roziligi bilan ruxsat beriladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida eng ko'p bola nikohlari kambag'al rivojlanayotgan mamlakatlarda va kam ta'minlangan oilalarda sodir bo'lgan. Bunga sabab oila yashab qolishi uchun eng kata farzandlarini qurbon qilib boshqa farzandlarini hayotini saqlab qolishgan. Shuningdek, aynan bolalar nikohi ko'proq Afrika davlatlarida, Janubiy, Janubi-Sharqiy va G'arbiy Osiyo, Lotin Amerikasi hududlarida keng tarqalgan. Chunki bu davlatlarda aholisi ko'pligi, ish haqi juda pastligi va yegulik topilishi qiyinligi va qimmatligi asosiy o'rinni egallaydi. Yosh turmush qurishga esa ushbu hududlardagi qashshoqlik, kelinlik uchun sep berish urf-odatlari, mahalliy madaniy an'analar, erta turmush qurishga ruxsat beruvchi qonunlar, ijtimoiy bosim,



diniy qoidalar, voyaga yetganida turmushga chiqmaslikdan qo'rqish, savodsizlik, ayollarni haq to'lanadigan ishga kirishi qiyinligidir.

Tarixan oladigan bo'lsak, juda ko'p huquq manbalari qadimgi Rimdan tarqaladi ularda turmush qurishning eng kam yoshi qizlar uchun 12 yosh, o'g'il bolalar uchun 14 yosh etib belgilangan. Chunki ular juda ko'p yurish qilishi oqibatida aholi soni kamayishini oldini olish hamda qo'shinga askar yetishib chiqishi kerak edi. Xuddi Rim imperiyasini tarkibida bo'lgan Gretsiyada ham erta turmush qurish va onalik rag'batlantirilgan, o'g'il bolalar esa o'smirlik chog'ida turmush qurishgan. Shuningdek, o'rta asrda Angliya qonunchiligi ham, Rim huquqiga asoslangan bo'lib, erta turmush qurishga ruxsat bergan. Ular odatda 16 yoshdan oldin sodir bo'lgan. Xitoyda o'z tarixining imperatorlik davrida bolalar nikohi ham norma hisoblangan. Chunki imperator oilasida ham yosh shahzodalar turmush qurishi odatlari mavjud bo'lgan va shuningdek ularda qirol vafot etga taqdirda aning rafiqasi u bilan birga tiriklayin ko'milgan yoki o'ldirilib keyin ko'milgan degan ma'lumotlar ham yo'q emas.

XXI asrning boshlariga kelib, aksariyat mamlakatlar qonunlarida nikoh uchun umumiy minimal yosh 18 yosh deb belgilanishiga qaramay, ko'plab mamlakatlar roziligi bilan deyilganda ushbu asrda bemalol ko'chib borib yashashi mumkin bo'lgan, va 18 yoshdan oldin nikohga ruxsat beruvchi shaxslar mavjud bo'lib ularni roziligi bilan buni amalga oshirishgan. Ba'zi davlatlarda xuddi bizniki kabi voyaga yetmagan shaxslarga nikoh marosimi uchun diniy ulamolar jazolanadi. Xuddi shunday qonunchilik qo'shni Qirg'iziston Respublikasida ham mavjud bo'lib, unda 2016-yilda nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh o'rnatishda ishtirok etgan diniy ulamolarni shuningdek, ularning ota-onalarini, ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni, vasiy homiylarni jazolashga qaratildi. Qonunda 3 yildan 6 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi belgilab qo'yildi. Yangi turmush qurgan yoshlar bilan diniy nikoh marosimlarini o'tkazish uchun jazo Hindiston, Kanada va AQShda ham mavjud .



Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi ma'lum qilishicha: 2010-yilda 158 ta davlat o'z qonunlariga ko'ra, ayolning ota-onasi yoki hukumat roziligisiz turmush qurishi uchun minimal yosh 18 yosh deb belgilangan. Biroq, 146 mamlakatda davlat qonunlari yoki mahalliy urf-odatlar qonunlari ota-onalar yoki hokimiyatning roziligi bilan 18 yoshga to'lmagan qizlarni turmush qurishiga ruxsat beradi. Shuningdek, 52 ta davlatda 15 yoshga to'lmagan qiz ota-onasining roziligi bilan turmushga chiqishi mumkin. Erkaklar uchun esa turmush qurish yoshi 18 yosh etib belgilangan va bu 180 ta davlat qonunchiligida belgilangan.

Tadqiqotlar natijasida Amerika Qo'shma Shtatlarda 1960-yil aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, qizlarning 3,5 foizi 16 yoshgacha turmushga chiqqan, yana 11,9 foizi 16 yoshdan 18 yoshgacha turmushga chiqqan. Nikoh yoshi pastroq bo'lgan shtatlarda yosh nikohlar ulushi yuqori bo'lgan.

Bolalar turmushining asosida ko'pini qiz bolalar tashkil etadi o'g'il bolalarda bu holat kamdan kam sodir boladi va u voyaga yetgandan so'ng ma'lum bo'ladi. Voyaga yetgandan so'ng javobgarlik ko'rish uchun na asos topiladi na aybdor. Hozirgi kunda UNISEF ma'lumotlariga ko'ra, voyaga yetmagan nikohi ko'plab uchrab turishini va 2014 yil sentyabr holatiga ko'ra, 18 yoshgacha bo'lgan 156 million erkak turmush qurgan. Ammo voyaga yetmagan bolada nikohning sabablari va unda, erlik uchun tajribaning yetishmasligi hali o'rganilmagan.

Bolalar nikohining tarqalishiga yordam beradigan omillar: qashshoqlik va u bilan bog'liq iqtisodiy omon qolish, gender tengsizligi va boshqa mulkka egalik masalalari, jinsiy aloqa ustidan nazoratning yo'qligi va oila sha'ni, an'analari va madaniyatini himoya qilish, oilani ta'minlay olmaslik, turmushga chiqmagan ayol uchun esa hayot xavfsizligi, urush, ochlik yoki epidemiya davrida dolzarbdir. Boshqa sabablar orasida hokimiyat va oilalar o'rtasidagi munosabatlarni hal qilish uchun nikohdan foydalanish kiradi. Bolalar nikohining tarqalishi aholining tez



o'sishiga sabab bo'lishi mumkin ammo, ko'p sonli chaqaloqlar tashlab ketilishi, oila buzilib ketishi, oilada boquvchi yo'qligi va boshqa holatlar sabab bo'lishi mumkin.

Erta turmush qurishga qashshoqlik, ochlik ham sabab bo'lgan. Buning yorqin namunasi sifatida ingliz teatri aktrisasi Ellan Terry 16 yoshida 46 yoshli Jorj Uottsga turmushga chiqdi. Uning ota-onasi bu nikoh muvaffaqiyatli bo'ldi, deb o'ylashdi, lekin uning o'zi keyinchalik bola kelin bo'lishdan o'zini noqulay his qilganini aytdi.

Ijtimoiy himoyasizlik butun dunyo bo'ylab bolalar nikohining asosiy sabablaridan biridir. Misol uchun, Nepalda ota-onalar yoshi katta qizi o'z uyida yashashda davom etsa, jamoatchilik tanqidiga duchor bo'lishdan qo'rqishadi. Yana bir tahdid zo'rlash bo'lib, turmushga chiqmay qolishdan qo'rquv va jamoatchilik fikrining bosimi ham erta turmush qurishga olib keladi. O'ta qashshoqlikda yashovchi oila uchun qiz farzandi og'ir bo'lishi mumkin, lekin imkon qadar erta turmushga berilsa, bu oila uchun ham, o'zi uchun ham yengillik bo'ladi. Kam ta'minlangan ota-onalarning tanlovi kam bo'lib, o'g'il bo'lsa ishlab yordam beradi qizbo'lsa erta turmush qurishga majbur etiladi chunki juda jo'p oiladagi qiyinchiliklar ularni tezda turmushga berishga majbur qiladi. Bolalar nikohi ko'p holatda yolg'iz boquvchi ayol bo'lsa, uni qizi yoshligidan qarz o'rniga yoki oila uchun pul manbai qorin to'ydirishga asos bo'ladi.

Bolalar nikohi katta siyosatlarda ham mavjud bo'lib qaysidir kompaniya yoki davlat amaldorlari birlashuvi ularning voyaga yetmagan farzandlarining nikohi bilan mustahkamlanadi agar hamkorlik buzilsa ayrim paytlarda nikoh ham buziladi.

UNICEFning 2011-yil ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab 10 millionga yaqin ayol 18 yoshgacha turmushga chiqadi. Agar hozirgi tendentsiyalar davom etsa, kelgusi bir necha yil ichida har kuni 39 mingga yaqin bola nikohi sodir bo'ladi va bir yilda bola kelinlar soni taxminan 14,2 millionni tashkil qiladi. 2000-yildan 2011-yilgacha rivojlanayotgan mamlakatlarda 20 yoshdan 24 yoshgacha



bo'lgan ayollarning uchdan bir qismi 18 yoshga to'lgunga qadar rasmiy yoki norasmiy nikohda bo'lgan. 2010-yilda bunday ayollar deyarli 67 million edi. Ularning 12 % ga yaqini hali 15 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar turmush qurishgan. Dunyo bo'ylab o'rtacha hisobda 15 yoshgacha bo'lgan qiz har yetti soniyada turmushga chiqadi. Dunyo bo'ylab kamida 700 million ayol bolaligida turmush qurgan, ularning kamida uchdan bir qismi 15 yoshgacha turmushga chiqqan.

Ayollar bo'yicha Xalqaro tadqiqot jamg'armasi tomonidan 2017-yil iyun oyida e'lon qilingan hisobotga ko'ra, dunyoda har yili kamida 15 million bola nikohi sodir bo'ladi, so'nggi 30 yil ichida ularning soni ko'plab mamlakatlarda kamayib bormoqda, ammo 25 mamlakatda ayollarning kamida uchdan bir qismi hali ham turmushga chiqadi va 20 % birinchi farzandini 18 yoshgacha bola dunyoga keltiradi. Shuningdek, dunyoda bolalar nikohining tarqalishi mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi. Ko'pgina an'anaviy jamiyatlarda, kelinlik odatlari saqlanib qolgan joylarda, bolalar nikohi juda keng tarqalgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda va ba'zi etnik guruhlarda (masalan, lo'lilar) bolalar nikohi ko'proq uchraydi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, yosh nikohlarning aksariyati Afrikaning Sahroi Kabirdan janubi-g'arbiy qismida, ayollarning uchdan bir qismidan ko'prog'i 18 yoshga to'lmasdan turmushga chiqadigan qishloq joylarida va kelinlarning deyarli yarmi nikoh paytida 18 yoshdan kichik bo'lgan Janubiy Osiyoda sodir bo'ladi. Dunyo mamlakatlari orasida bolalar nikohining nisbiy tarqalishi bo'yicha Niger yetakchi bo'lib, ularning ulushi nikohlar umumiy sonining 75 % ga yetadi, undan keyin Chad 68 %, Markaziy Afrika Respublikasi 68 %, Bangladesh 66 %, Gvineya 63%, Mozambik 56 %, Mali 55%, Burkina-Faso 52 %, Janubiy Sudan 52 % va Malavi 50% ni tashkil etadi. Ammo bolalar nikohlari soni bo'yicha dunyoda etakchi Hindiston bo'lib, u dunyodagi barcha yosh nikohlarning qariyb 40 % ni tashkil qiladi. Bu uning aholisining kattaligi va bu mamlakatning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq.



Hindistonda voyaga yetmaganlar bilan nikoh taqiqlangan va hatto jinoiy javobgarlikka tortilganiga qaramay, u urf-odatlar va mahalliy jamoalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi hamda politsiyaga juda kamdan-kam hollarda xabar beriladi. Natijada, JSST ma'lumotlariga ko'ra, hind kelinlarining 47 foizi 18 yoshgacha. qo'shni Bangladeshda yosh bola turmush qurish darajasi bundan ham yuqori; bu ko'rsatkich bo'yicha Janubiy Osiyo davlatlari orasida yetakchilik qiladi. Bola nikohi rasmiy taqiqlanganiga qaramay, ayol ko'pincha balog'atga yetganidan so'ng turmushga chiqariladi. Shuning uchun ham voyaga yetmaganlar nikohini ham taqiqlash davlat va jamiyat uchun ham foydali hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxslarni nikoh yoshida turmush qurishini ta'minlashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zamonaviy rus adabiy tilining lug'ati. - 17t.da: T.7. - M., 1948. - B.490.
2. Jinoyat huquqi lug'ati /prof. A.V.Naumov. - M., 1997. - B.245.
3. V.N. Kudryavtsev Jinoyatning kelib chiqishi va kriminologik modellashtirish tajribasi. - M., 1998. - B.47.
4. V.G. Bujor Og'ir zo'ravon guruh jinoyatlarining kriminologik tahlili va oldini olish: Muallifning avtoreferati. dis. ...kand. qonuniy Sci. - M., 1992. -20 b.
5. V.V.Ivanova, R.D.Sharapov - Jinoyat huquqida jismoniy zo'ravonlik. - Sankt-Peterburg, 2001. - B.16.
6. D.A.Shestakov - Oilaviy kriminologiya: oilaviy nizo-jinoyat. - Sankt-Peterburg, 1996. - 261 b.;
7. Starkov O.V. Oilaviy zo'ravonlik jinoyatlari. - Ryazan, 1992. - 160 pp.;